

## **“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati yagona aksiyadorining 10-son qarori**

2022-yil 4-fevral

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko‘chasi, 38-uy.

### **KUN TARTIBI:**

“O‘zkimyosanoat” AJ va uning tarkibidagi tashkilotlar muassisligida yuridik shaxs huquqlari bilan mas’uliyati cheklangan jamiyati shaklida Kimyo sanoati uchun innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish va ta’lim klasteri direksiyasini tashkil etish va ustav kapitaliga ulush kiritish to‘g‘risida.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **qaror qabul qilindi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kimyo sanoati uchun innovatsion kimyoviy ilmiy-ishlab chiqarish va ta’lim klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 15 dekabrda 753-son qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “O‘zkimyosanoat” AJning 100 foiz ulushi ishtirokida mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi “Kimyo sanoati uchun innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish va ta’lim klasteri direksiyasi” tashkil etilsin va uning ustav kapitaliga “O‘zkimyosanoat” AJning o‘z mablag‘lari, Kimyo sanoati tashkilotlarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash hamda Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan jami 20,0 (yigirma) milliard so‘m ulush kiritish ma’qullansin.

3. “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruv raisi (Mirzamahmudov) “Kimyo sanoati uchun innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish va ta’lim klasteri direksiyasi”ni tashkil etish bilan bog‘liq hujjatlarni o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirsin.

*Qaror rasmiylashtirilgan sana: 04.02.2022-yil*